

MAKTABLARDA PSIXOLOGIK XIZMATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

O‘roqova Laylo Bekmirzayevna

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Ilmiy raxbar: **O.Eshmuradov.**

Psixologik xizmat jarayoni bilan bog‘liq shaxs muvaffaqiyatli faoliyatining yo‘nalishi esa faoliyatga nisbatan faol ijobiy munosabatning tarkib topishi va namoyon bo‘lishidir. Bunda shaxsning faoliyatdan qoniqishi, xulq-atvoridagi motivatsion tizimning ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan boshqaruvchilikka taalluqli sifatlarini yaqqol namoyon bo‘lishida kuzatiladi. Zero, har jihatdan ijtimoiy faollikka xizmat qiluvchi sifatlar namoyon etilmagan joyda mehnat jamoalari, ta’lim muassasalari va boshqa tashkilotlarda shaxs va jamiyat uyg‘unligining ta’milanishi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi barcha imkoniyatlar qo‘ldan boy beriladi. Bunday imkoniyatlarni doimiy ravishda muhofaza qilish nafaqat ijtimoiy tashkilotlarning, balki har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Shunday qilib, psixologik xizmatning metodologik asoslari sifatida talqin qilingan mazkur fikr-mulohazalar ijtimoiy psixologiya fanining quyidagi amaliy-tatbiqiy yo‘nalishlariga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi.

Psixologik xizmat metodologiyasi ijtimoiy psixologiya asoslari zamirida tarkib toptiriladi. Har bir fanning rivojlanishi yangi dalillar asosida ilmiy yo‘nalishni ochib beruvchi metodik qurilmaning tuzilishi bilan bevosita bog‘liqidir. Chunki, aniq metodologiya bo‘limgan sohada aniq amaliy natijalar ham bo‘lmaydi. Zero, ijtimoiy psixologiya fanining yana bir muhim yangi vazifasi psixologik xizmat metodologiyasi bilan bog‘liq nazariy, amaliy va empirik yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lamini belgilashning bugungi kungacha hal qilinayotganligini tahlil qilishga qaratiladi. Bu borada O‘zbekiston psixologlari tomonidan olib borilayotgan eksperimental izlanishlarda fan olami uchun o‘ziga xos saloxiyatga va nufuzga ega bo‘lgan tadqiqotlar mavjudki, ular qaysidir jihat bilan psixologik xizmat modeli va uning psixologik himoya vositasi sifatidagi mohiyati, ahamiyati va ijtimoiy istiqbollari haqidagi ilmiy-amaliy tasavvurlarimizni shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

1. Psixologik xizmat har bir shaxsning faoliyatdan ijtimoiy va hissiy qoniqish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan usullar va uslublar majmuasiga asoslanishi lozim;

2. Psixologik xizmat shaxsning faoliyat jarayonidagi o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga va faoliyatga bo‘lgan munosabatlaridagi ierarxik tizim dinamikasini tadqiq qilishi

va shu tizim asosida ijtimoiy psixologik muhitning yaratilishiga zamin hozirlay olishi bilan bog‘liq izlanishlar ko‘lmini o‘z ichiga oladi.

3. Psixologik xizmat jarayoni bilan bog‘liq ijtimoiy muhim ko‘rsatkichlarning tahlili har bir shaxs faoliyati uchun xarakterli bo‘lgan individual farqlanish, individual uslub va ijtimoiy ustanovkaning qaror toptirilishini o‘rganish asosida amalga oshirilishi mumkin.

4. Psixologik xizmat jarayonini ijtimoiy psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilish muammosi bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va bu muammoni bartaraf etishda ma’lum psixologik tamoyillarga tayanish talab qilinadi.

Yuqorida takidlab o‘tilgan fikrlar O‘zbekistonda psixologik xizmatning bugungi holati va o‘ziga xos istiqbollariga baho berishda ma’lum nazariy hamda metodologik manba sifatida xizmat qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizning ta’lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etish, muammoli vaziyatlarni o‘rganishga oid amaliy psixodiagnostik ishlarni amalga oshirish, nazariy va amaliy bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish hamda ularni amaliyotga qo‘llash zaruriyati oshib ketdi. Bu quyidagi hollar bilan bog‘liq:

1. Ta’lim tizimida psixologik xizmatni rivojlantirish muammosi tajribali mutaxassislarni jalb qilishni va zaruriy amaliy hujjatlarni ishlab chiqishni, tashkil etilgan psixologik xizmat markazlarida texnika vositalaridan unumli foydalanishni taqozo etadi. Bu muammolarni hal qilish psixologik xizmat xodimlarining yetarli darajada bilim saviyalariga bog‘liqdir. Yana shuni ta’kidlash joizki, har bir o‘rganiqan muammoning natijalari diagnostik va psixokorreksion tahlillarning yetarli darajada to‘liq va aniqligini ta’minalash.

2. Ta’lim muassasalaridagi faoliyat yurituvchi psixologlar ma’naviy psixologik iqlimi yaratishda o‘qituvchi va o‘quvchilarining o‘zaro hamkorlik faoliyatidagi ma’lum psixologik muammolarni bartaraf etish uchun turli soha vakillari bilan uzviy aloqani mustahkamlash.

3. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat xodimlari inson hayoti va faoliyatida ro‘y beradigan o‘zgarishlarning yosh va jins xususiyatlarini hisobga olgan holda muammolar keltirib chiqaruvchi sabablarni inobatga olib, o‘quvchilar bilan individual va guruhiy maslahatlar va psixotrenening mashg‘ulotlarini tashkil etish, psixologik qo‘llab-quvvatlash ularning psixikasiga ta’sir etish mexanizmlarini o‘rganuvchi usullarni bilishi va psixologik maslahat va psixokorreksion mashg‘ulotlarning zamonaviy yaxlit, tizimlashtirilgan majmuini ishlab chiqishi zarur.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti ta'lum-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi va psixologik xizmat markazlarni tashkil etishga bog'liqdir. Bunday muammolarni o'rghanish quyidagi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi:

a) ta'lum muassasalarida psixologik xizmatning qay darajada tashkil etilganligini aniqlash;

b) ta'lum jarayoni ishtirokchilarining psixologik hamkorlik darajasini aniqlash;

v) psixologik xizmat xodimlarining ota-onalar va ta'lum jarayoni ishtirokchilari bilan muloqotchanligi, iqtidorli o'quvchilarni tanlash, ular bilan ishlash, kasbga yo'naltiruvchi faoliyat motivlari imkoniyatlari mavjudligini aniqlash;

g) ta'lum tizimidagi psixologik muammolarni o'rghanish, yosh avlodni barkamol shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladigan amaliy tadbirlar, psixologik treninglar o'tkazish dasturini ishlab chiqish va taqdim qilish;

Asosiy maqsad O'zbekistonda ta'lum tizimi samaradorligini oshirish, psixologik muammolarni aniqlash hamda psixologik xizmat xodimlarining amaliy psixologik bilim va tajribalarini oshirish. Maqsadga erishish uchun ilmiy-amaliy shakllantiruvchi ishlarni har bir ta'lum muassasalarining muammoli tomonlarni hisobga olgan holda amalga oshirishni rejalashtirish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiyy psixologiya, Toshkent 2002.
2. Karimova , V. M. Psixologiya T. 2002y.
3. Nishanova Z.T., Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymanov Psixologik xizmat Toshkent -2 0 1 4y.
4. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
5. Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).
6. Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. Gospodarka i Innowacje., 20, 49-51.
7. Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 1318-1323.
8. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмурадов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1 (6), 143-149.

6. Eshmurodov, O. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088>
9. Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>
10. Eshmurodov O. E. SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MAINTAINING FAMILY-MARRIAGE RELATIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 803-807.
11. Эшмурадов О. Э. ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ШАХС МОСЛАШУВЧАНЛИГИ ХУСУСИЯТИНИНГ ОИЛА МУСТАХКАМЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012> Эшмурадов Олмосбек Эламонович, Термиз давлат университетининг Педагогика институти Психология кафедраси катта ўқитувчиси //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1-Махсус сон. – С. 377-380.
12. Eshmurodov, Olmosbek. "ОИЛА МУСТАХКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." *Scienceweb academic papers collection* (2022).
13. Эшмурадов О. Э. Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1082-1085.
14. Эшмурадов, О. Э. "Оилавий муҳит ва оилавий муносабатлар психологиянинг ўрганиш предмети сифатида." ЎзМУ хабарлари" Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журнали (2019): 162-164
15. Eshmurodov O. ОИЛА МУСТАХКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ //Scienceweb academic papers collection. – 2022.